

**METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE
METHODOLOGY OF TEACHING THE DEPARTMENT OF "ASIAN
COUNTRIES" IN THE CONTEXT OF IMPLEMENTATION**

Ibragimov Khurshid Khairullaevich

Navoi State Pedagogical Institute

"Fundamentals of geography and economic knowledge"

chair teacher

Annotation: in improving the methodology of teaching the "Asian countries" Department in the context of implementation, the rapid, active, appropriate use of pre-established goals between educators and students creates the opportunity to further strengthen cooperation, activity, as well as interaction between students in each subject of educational processes.

Keyword: science, systemality, fundamentalism, consistency, exhibitionism, continuity of education and upbringing, awareness, continuity, differentiation and individualization, harmonization of teaching in individuals and groups.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi, uning jahon hamjamiyatida suveren davlat sifatida o'ziga munosib o'rin olishi siyosiy geografiyaga oid mavzularni ham kun tartibiga qo'ydi. Xususan mamlakatimizning jahon davlatlar bilan munosabati (geosiyosati), uning ichki ma'muriy-hududiy tuzilmasi, milliy poytaxti – Toshkentning siyosiy funksiyalari va diplomatik aloqalari, xalqaro turizm, elektoral (saylovlar) geografiya kabi muammolarning o'rganilmog'i zarur. Shu bilan birga fan tarixi va tarixiy geografiyaga doir tadqiqotlarni ham olib borish, jahon geografiyasi fanining nazariy – uslubiy masalalari hamda ijtimoiy ekologiya bo'yicha izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanining o'qitilishi avvalombor o'quv dasturlari, ma'ruzalar matni va qo'llanmalarisiz bo'lmaydi. Aytish lozimki jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasidan darslik yozish o'ta masuliyati mushkul ish. Ushbu fanning o'ziga xos xususiyatlari-xarakatchanligi (dinamikligi), siyosat va statistika, ekologiya bilan aloqadorligi har qanday darslik

<https://conferencea.org>

oldidagi qiyinchiliklarga sababchi bo'ladi. Uning ustiga o'tish davrida iqtisodiy rivojlanishining unga barqaror emasligi, pulning biroz qadrsizlanishi oqibatida mahsulot qiymatining turli yillardagi real holatini o'zgaruvchanligi, gorizontaal aloqalar (ishlab chiqarish kooperatsiyasi)ning vaqtincha buzilganligi oqibatida ba'zi sohalarda o'sishning deyarli to'xtab qolganligi kabi masalalar darslik mualliflarini nihoyatda qiyin vaziyatga tushuradi. Qolaversa, avvalgi bandlarda ta'kidlaganimizdek ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy va hududiy shakllari: mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya (hamkorlik), kombinatlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari, sanoat tugunlari, o'sish qutb va markazlari, texnopolis, yagona iqtisodiy makon, agrosanoat majmualari, infrastruktura tuzilmasiga o'xshash ananaviy va zamonaviy tushunchalar yangicha talqin qilinishni talab qiladi. Shu bilan birga turli xo'jalik tarmoqlari va hududlariga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalar va metodik ko'rsatmalarni tayyorlash ham katta amaliy ahamiyatga ega. Chunonchi, sanoat, qishloq xo'jaligi, shaharlar va aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasiga oid hamda alohida viloyat va iqtisodiy rayonlar ta'rifiga doir o'quv qo'llanmalarining yaratilishi o'quvchilar – talabalar bilimlarini kengayishi va mustahkamlashiga yordam beradi. Sobiq ittifoq davridagi Oliy o'quv yurtlari dasturlarida "O'z o'lkasini o'rganish"ga ham soat ajratiladi va o'lka sifatida O'zbekiston tushuniladi. Endi esa geosiyosiy vaziyat tamomila o'zgardi: vatanimiz esa tom ma'noda O'zbekiston, o'lkamiz esa yashab turgan joyimiz - viloyat va rayonlar bo'ldi. Demak, ularni ham atroflicha o'rganish vaqti etdi. Zero, "Vatan ostonadan boshlanadi" deyiladi. Ammo, talaba va o'qituvchilarimizga bu xususida hamma vaqt nimadir yetishmay kelgan: avvallari soat yetishmagan bo'lsa, endi esa o'quv materiallari kam. Qolaversa, jahon mamlakatlari geografiyasini o'qitish uchun hozirgi o'quv karta va atlaslar ham oz. Shuning uchun umumta'lim, o'rta maxsus va Oliy maktablar oldida turgan dolzarb muammolar ham o'z yechimini topmog'i lozim. Darsliklar mazmunida va o'qitish jarayonida geografiya, shu jumladan jahon geografiyasining o'quv predmeti va

<https://conferencea.org>

uning ayni paytda alohida fan ekanligi talim-tarbiya bilan birgalikda ilm-fan elementlari ham yuqoriga borgan sari ko'payib va chuqurlashib borishi kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifatli va samarali tashkil etilishi masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olim A. Musurmanovning fikriga ko'ra, bugungi kunda dunyo miqyosidagi globallashuv, integratsiyalashuv va modernizatsiya jarayoni yosh avlodga kechagi an'anaviy ta'lim shakllari, metodlari va vositalari bilan bilim berish hamda ularni tarbiyalash mumkin emasligini ko'rsatmoqda.

Demak, ta'lim jarayonlarida interfaol metodlar ta'lim samaradorligini oshirishda bir nechta ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- talabalarda o'quv jarayonlariga nisbatan qiziqishi ortadi;
- ta'lim jarayonida talabalarning faolligi ortadi;
- har bir talabalaning emotsional xususiyatlariga ta'sir etadi;
- talabalarning fan materiallarini chuqur o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratiladi;
- talabalarga pedagog tomonidan ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatiladi;
- teskari aloqalar vujudga keladi;
- talabalarning kreativligi oshadi, fikrlar xilma-xilligi paydo bo'ladi;
- talabalarda hayotiy ko'nikmalar rivojlanadi;
- talabalarning xulq-atvoridagi salbiy tomonlar ijobiy tomonga o'zgaradi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaxobov X., Abduraxmonov B. O'rta maxsus o'quv muassalarida o'rganiladigan geonazariyalar. "Geografiya fanining dolzarb nazariy va amaliy muammolari". Resp. ilmiy. amaliy konf. materaillari: T. 2006 136-138 b.

2. Ahmedova Yu., Xoliqova M, Shirinova M, Rahmonova S // Theoretical Fundamentals of Improving the professional Competence of Geography Teachers in Educational Institutions// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) ISSN:1308-5581vol 14, 03.2022 2022. 10015-10017.

3. Vaxobov X., Abdunazarov O'., Zaynutdinov A. Geografiya ta'limida darsliklar yaratish muammosi. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. T. 2000, №21, 188-191 b.

<https://conferencea.org>

4. Vaxobov X., Saydamatov F. Geografiya ta'limi maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash. Respub. Ilmiy- amaliy. Konf. materiallari "Janubiy O'zbekistonda geografiya maktablarining shakllanishi va rivojlanishi" Termiz, 2006, 19-20.